



RAMZIY INTERAKTSIONIZM

Nurmatova Diyora

*O'zbekiston milliy universiteti
Sotsiologiya 1-kurs talabasi*

Ramz! Bu o'zi nima? Ramz so'zi arabchadan olingan bo'lib, "ishora qilmoq" degan ma'nolarni anglatadi. "Ramz" deganda bir-biri bilan interaktsiya, ya'ni o'zaro aloqaga kirishganda individlar tomonidan tushuniladigan "ma'no" nazarda tutiladi. Jamiyat a'zolari doimo bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Bu aloqa vaqtida albatta ular bir-birlarini tushinishi shart, aks holda jamiyat a'zolari orasida kichik ziddiyatlar kelib chiqadi va ular birlashib katta muammolarni hosil qiladi. Shunday holatlar vujudga kelmasligi uchun ma'lum bir guruh a'zolari faqatgina o'zlari tushunadigan ramzlar orqali aloqaga kirishishadi.

Keng nazariya sifatida, ramziy interaktsionizm XX asrning 20-yillarida Chikago maktabida vujudga kelgan. Ramziy interaktsionizm- jamiyatda insonlar munosabatlarining barcha shakllari ma'lum bir ijtimoiy belgilar – til, tana harakatlari, imo-ishoralar, madaniy belgilar va boshqalar asosida aloqa o'rnatilishini anglatadi. Uning asoschisi amerikalik olim Jorj Mid hisoblanadi. Bundan tashqari yana bir qator yirik mutafakkirlar, shu jumladan, Charlz Xorton Kuli, U.A.Tomas, Gerbert Blumer va Irvan Goffman kabi olimlarning nomlari bu yo'nalish bilan bog'liq. Har bir yo'nalish nimagadir asoslanadi. Ramziy interaktsionizm ijtimoiy ayirboshlash jihatlarini tahlil qilishga asoslanadi. Ramziy interaktsionizm asoschisi J.G.Mid o'z konsepsiyasini "sotsial bixeviorizm" deb e'tirof etgan.

"Ramziy interaktsionizm" tushunchasini uning shogirdi Gerbert Blumer fanga kiritgan.

Ramziy interaktsionizm odatda 2 ta maktab faoliyati alohida o'rganiladi:

1. Chikago maktabi
2. Ayova maktabi

Ramziy interaktsionizm uch asosiy g'oyaga asoslanadi:

1. Insonlar o'z muhitlaridagi elementlarga o'zlari bergan baho asosida qaraydilar,
2. Bunday ma'no kundalik ijtimoiy shaxslararo hamkorlikning mahsuli – interaktsiya – sifatida namoyon bo'ladi,
3. Bunday sotsiomadaniy ma'nolar o'zaro hamkorlik oqibatida individual tasavvurning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.



Jorj Gerbert Mid – ramziy interaksionizm tarixida eng taniqli mutafakkir, uning “Aql-idrok, o’zlik va jamiyat” kitobi esa – mazkur an’ana doirasidagi eng muhim asardir. Mid ta’limotining markaziy tushunchasi – shaxslararo o’zaro aloqalardir.

Mid to’rtta asosiy o’zaro aloqa bosqichlarini ajratib ko’rsatdi:

1. Impuls
2. His etish (persepsiya)
3. Manipulyatsiya
4. Iste’mol (konsunmmatsiya)

Sotsial harakatni o’zaro aloqa sifatida talqin eta turib Mid uning ikki turi - noramziy va ramziy o’zaro aloqani ajrtadi.

Noramziy aloqa – odamlarning bir-birlariga o’zaro aloqani ajratadi. Bunga biz “jonli tabiat” ni misol qilishimiz mumkin.

Ramziy aloqa – bu kishilik jamiyati. Bunga til almashinuvi, ovoz ishorasi va nutqni misol qilishimiz mumkin.

O’zaro aloqa deb ta’riflangan moslashuv kommunikatsiya vositasida yuz beradi:

Ilk jamiyatlar: imo-ishoralar

Zamonaviy jamiyatlar: ramzlar-ma’no anglatuvchi ishoralar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.”Sotsiologiya tarixi” kitobi B.Normurodov, G.Normurodova [b.334-335]
- 2.”Aql-idrok, o’zlik va jamiyat” kitobi Jorj Mid[b.9-24]
- 3.”Ko’zgidagi men” nazariyasi Charlz Xorton Kuli[b.173-179]